

9-sinf adabiyot

1-CHSB

I variant

1. (B – 2). Xoja hayoti va ijodi oid to‘g‘ri ma‘lumot berilgan qatorni toping.
- A) Ijodkor o‘z ijodi davomida 400 dan ortiq she‘r yozgan, shulardan 200 dan ortig‘ini ruboiy janri tashkil qiladi.
- B) Munis boshlab qo‘ygan “Firdavs ul-iqbol” (“Iqbol bog‘i”) asarini davom ettirib, Xiva xonligining 1825-yilgacha bo‘lgan tarixini yozib tugatadi.
- C) Xojaning o‘g‘li Hasanxo‘ja Nisoriy “Muzakkiri ahbob” asarida otasining qilgan ishlari, hayot tarzi, axloq-saiyiasi haqida qimmatli ma‘lumotlar qoldirgan.
- D) O‘z zamonasining “malik ul-kalomi”, ya‘ni “so‘z mulkinging podshohi” deya ulug‘lanadi.

2. (B – 2). Adabiyotning lirik turiga xos to‘g‘ri ma‘lumotni aniqlang.
- A) Mumtoz adabiyotda musamman, ruboiy, tajnis, talmeh kabi janrlarni uchratamiz.
- B) Mumtoz adabiyotimizda har bir qator “bayt” deb yuritiladi.
- C) Boshqa xalqlar she‘riyatida lira, sonet, oda, xokku, elegiya kabi janrlarni uchratamiz.
- D) Ko‘p hollarda poetik maqsad talabi bilan inversiyaga murojaat qilinadi.

3. (B – 2). Ogahiy hayoti va ijodiga oid to‘g‘ri ma‘lumot berilgan qatorni toping.
- A) Ijodkor o‘z zamonasida juda mashhur bo‘lib “muqarrabi shohiy”, ya‘ni “podshohning eng yaqin kishisi” deya ulug‘langan.
- B) “Maqsad ul-atvor” nomli bir dostoni ham yetib kelgan bo‘lib, doston 1514–1520-yillarda Jonibek Sulton nomiga bitilgan.
- C) Sa‘diy Sheroziyning “Guliston”, Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayho” asarlarni o‘zbekchalashtiradi.
- D) “Tarixi muluki Ajam”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Arba‘in”, “Bahoriston” kabi bir qator tarixiy asarlar yozgan.

4. (Q – 2,4). “Alpomish” dostoni voqealari yuzasidan berilgan to‘g‘ri hukmni toping.

T/R	Hukm	To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
1	Boybo‘ri o‘g‘li Alpomishni qalmoq yurtiga yuborgisi kelmaydi. O‘g‘lini niyatidan qaytarish uchun unga ot bermaslikni yilqichi Qultoyga tayinlab qo‘yadi.		
2	Hakimbek yetti yoshida Dobonbiy bobosidan qolgan o‘n to‘rt botmon birinjdand bo‘lgan parli yoyni ko‘taradi va unga Alpomish deb ot qo‘yiladi.		
3	Qo‘ng‘irotlarning Boysindan Qalmoqqa ko‘chib borganlariga besh yil bo‘lganda Oybarchinning bo‘yi yetib, suluv qizga aylanadi.		
4	Ko‘kaldosh boshliq qalmoqlar Boychiborning poygada yutishi aniqligini bilib, poygada qatnashishdan voz kechishadi.		

- A) to‘g‘ri, noto‘g‘ri, noto‘g‘ri, to‘g‘ri
- B) noto‘g‘ri, to‘g‘ri, to‘g‘ri, to‘g‘ri
- C) to‘g‘ri, noto‘g‘ri, to‘g‘ri, noto‘g‘ri
- D) to‘g‘ri, noto‘g‘ri, noto‘g‘ri, noto‘g‘ri

5. (Q – 2,4) “Alpomish” dostoni qahramoni Ko‘kaldosh yuzasidan berilgan to‘g‘ri hukmni toping.

- A) Alpomishni o‘ldi deb gap tarqatib, o‘zi taxtga chiqib olgan o‘gay uka.
- B) Saman otli, sarjig‘ali bek yigit deb ta‘riflangan qalmoq pahlavonlaridan biri.
- C) Boysarining oldiga zakot so‘rab borib, qulog‘idan, burnidan ayrilgan obraz.
- D) Boybo‘ri va Boysarining farzandlariga to‘yda ism qo‘yib ketgan pir.

6. (Q – 2,4). “Alpomish” dostoni voqealari yuzasidan berilgan to‘g‘ri hukmni toping.

- A) Qorajon Qalmoq yurti podshosi kam maosh bergani uchun To‘qayistondan ko‘chib ketadi.
- B) Kimsasiz tog‘da Qorajonning bog‘langan qo‘lini Alpomish yurtida qo‘l bergan odami Rajabxo‘ja pir yechib qo‘yadi.
- C) Surhayl kampir jangda halok bo‘lgan o‘g‘illarining qasosini olish uchun Alpomishni izlab Boysun eliga keladi.
- D) Boysari akasi tomonidan zakot talab qilib kelgan zakotchilarni izzat-ehtiroom ko‘rsatib bir uloq bilan jo‘natib yuboradi.

7. (Q – 2,4). “Alpomish” dostoniga oid fikrlarni undagi obrazlar bilan moslashtiring.

1. “Qariganda bizning molimiz besohibga chiqdi. Endi bizlar bir farzand taraddi qilmaymizmi?”	a) Boybo‘ri;
2. “Tortib olib bo‘lmasa, sotib olib bo‘lmasa, Xudo bermasa, qayoqdan qilamiz taraddi?!”	b) Boysari;
3. Bundan borsang, farzandlarni ko‘rsang, xaloyiqlarni yig‘sang, to‘y-tomoshalar bersang, to‘yda qalandar bo‘lib borib, bolalarining otini o‘zim qo‘yib kelaman”.	d) Qultoy;
4. “Alplarning ichida meni xohlaganday bo‘ldi, balki mening zo‘rligimni ham bildi, bizga ko‘ngil qildi”, – deb, – “Bor, olti oy muhlat!” — deb yubordi”.	e) Yortiboy;
	f) Ko‘kaman;
	g) Ko‘kaldosh;
	h) Shohimardon pir.

- A) 1-a, 2-b, 3-h, 4-g
- B) 1-b, 2-a, 3-d, 4-g
- C) 1-a, 2-b, 3-e, 4-f
- D) 1-b, 2-a, 3-h, 4-f

8. (Q – 2,4). Ogahiy qalamiga mansub g‘azal tahlili keltirilgan javobni aniqlang.

- A) Bahor boshlanishi bilan ulug‘ ayyom kelganini “Kun hamalg‘a kirdi esa keldi olam navro‘zi” misralari orqali ifodalaydi.
- B) Lola soqiysi qo‘lidan ishrat ahliga qadah tutilgani kabi tasvirlar orqali bahor ko‘tarinki zavq, hayajonli shavq bilan vaf qilinadi.
- C) Yurtidan ayrilgani yetmaganidek, yoridan ham judolikka uchragan shoir “O‘z diyorida adashgan devonaman” misralarini bitadi.
- D) Shoir ayyomni jonlantirib, u quyoshni baland qadr va martabaga yuksaltirgani va yerdan soyani ko‘targanini tasvirlaydi.

9. (Q – 2,4). Ogahiy qalamiga mansub g‘azal tahlili keltirilgan javobni aniqlang.

- A) Ishq tufayli ma‘shuq va ma‘shuqa bir-biriga begona bo‘lgani, bir-birining holidan xabar olmayotgani bayon qilingan.

- B) Oshiq yorga murojaatida sabr uyini qancha ta'mirlamasin, ko'z yoshlari selidan bu uyning har kecha vayron bo'lishi aks etgan.
- C) Shoir tog'lardan oqib kelayotgan suvni noz bilan suzilib borayotgan go'zalga o'xshatishi ifodalangan.
- D) Yor hajrida shamdek yonganini, ahvolini shamoldan emas, balki hijron kechasida oshiq bilan do'st bo'lganlardan so'rash kerakligini bayon qilgan.

10. (Q – 2,4). Ogahiy qalamiga mansub g'azal tahlili keltirilgan javobni aniqlang.

- A) Yor hajrida dard chekkan oshiqning ohlari osmongacha ko'tariladi, lekin bevafo yorning bunga zarracha e'tibor bermasligi ifoda etilgan.
- B) Lirik qahramon o'z zabun holiga shunday yig'laydiki, hatto o'zining ko'z yoshlariga toyib-toyib ketishi tasvirlangan.
- C) Barcha yaqinlari tashlab ketgani uchun o'z yoriga shikoyat qilib borgan ma'shuqaning dardini hech kim eshitmayotgani bayon qilingan.
- D) Yigitlik davri shamoldan ham tez o'tib ketishi, inson bu vaqtda ko'proq ilm olish zarurligini ta'kidlab, "Ahbob, yigitlikni g'animat tutingiz" misralarini bitadi.

11. (Q – 2,4). Furqat qalamiga mansub g'azal tahlili keltirilgan javobni aniqlang.

- A) Shoir yorning qomati sarv daraxtidan, ko'ylagi (pirahani) esa guldan ham nozik, ya'ni go'zal ekanligini ta'riflaydi.
- B) Inson ko'z oldiga keltirishi mushkul, ifodalash og'ir bo'lgan sevgi tuyg'usini yorilmagan yaraga qiyoslaydi.
- C) Muhabbat bilan to'lgan ikki qalbni bir-biridan ayirishga harakat qilayotgan yor-u birodarlar ustidan shikoyat qilayotgan oshiq holati bayon qilingan.
- D) Oshiq yor dardida shunday iztirob chekib oh tortadiki, osmonni tutun qoplaydi, bu holni ko'rgan beparvo xalq esa buni tuman deb o'ylashi tasvirlangan.

12. (Q – 2,4). Furqat qalamiga mansub g'azal tahlili keltirilgan javobni aniqlang.

- A) Mashuqaning g'am seli tufayli oshiq visoliga yetisha olmayotganligini bayon qiladi.
- B) Yor jamoliga to'ymagan bechora oshiqning kechalari oy dardiga malham bo'lishi tasvirlangan.
- C) Ko'klamning eng sara gullari – nastarin, yosuman, nargislar eng sara odamlarni kutib olayotgani tasviri uchraydi.
- D) Shoir dunyoni tuynuksiz qasrga, qismatni – telba xotinga, sevgini esa anglab bo'lmas sirga o'xshatadi.

13. (Q – 2,4). Furqat qalamiga mansub g'azal tahlili keltirilgan javob qatorini aniqlang.

- A) Kishi ko'zini quvontirayotgan bahoriy ko'katlar shunchaki go'zal emas, balki yaqinlarni kutib olishga hozirlik ko'rayotganligi sabab go'zal ekanligi tasvirlangan.
- B) Shoir qorong'i kechada sochining tolasiga havasi kelib, jonni savdo qiladigan ham, do'st-u dushman ichida boshsiz-oyoqsiz qilib qo'yadigan ham ko'ngil ekanini ta'kidlaydi.
- C) Hijron vasl uyini doim g'am bilan to'ldirayotgani, g'am seli bunga ko'maklashayotgani bayon qilingan.
- D) Mashuqaning ko'z yoshi gavhari o'rniga yuragi qon bo'lib, ko'zlaridan qatra-qatra yosh marjondek yosh oqqani ifodalangan.

14. (M – 5). Xoja hikoyati yuzasidan bildirilgan to'g'ri hukmni aniqlang.

“– Falon yerda bir zohid borturur. Yigirma qatla Ka’bag’a yayog‘ boribturur va taqi haj qilibturur va hech kishining oshin yemas, anga boring. Ul bir haj sotsa, podshoh uchun oling”.

1. Hikoyat mol-dunyo uchun barcha savobini podshohga sotib yuborgan zohid haqida.
2. Asarda yolg‘onchilik illati qoralangan.
3. Podshohning bir soatlik adolati uchun o‘zining yigirma marta hajga borganlik savobini almashishga tayyor zohid obrazi keltirilgan.
4. Zohid bu - yolg‘iz o‘zi g‘orda yashovchi, minnatli oshdan hazar qilgan, lekin podshohning taklifini rad etolmagan kishi.

- A) 2, 4
- B) 2, 3
- C) faqat 3
- D) 1, 2

15. (M – 5). Berilgan parcha haqida to‘g‘ri mulohaza berilgan qatorni aniqlang.

“Ushbu she’r yuksak san’atkorlik bilan yozilgan. Shoir so‘zlarning ma’no va ohang tovlanishlaridan juda ustalik bilan foydalangan. G‘azalda radif bo‘lib kelayotgan “kechadur” ko‘p o‘rinlarda ikki ma’noda kelgan. She’rning uchinchi-to‘rtinchi baytlarida bular yoniga “voz kechmoq”, “gunohini kechmoq” ma’nolari ham qo‘shilgan. Bir so‘z bilan aytganda, butun she’rni birgina so‘z - “kechadur” har maqomga solib o‘ynatilgan. Bu juda nozik, yuksak mahorat talab qiladigan ishdur. She’rning har bir misrasi bir necha xil ma’no ifodalagan”.

- A) Ushbu ta’rif shajarasi Boburga borib taqaladigan o‘zbek shoirasi Nodiraning “Oqibat” radifli g‘azali xususida.
- B) Bu fikrlar Ogahiyning “Ustina” radifli g‘azali haqida bo‘lib, bu she’r ijtimoiy lirikaning namunasi hisoblanadi.
- C) Bu fikrlar Zokirjon Furqatning mumtoz adabiyotimizning haqiqiy lirik namunasi bo‘lgan “Kechadur” radifli g‘azali tahlili hisoblanadi.
- D) Ushbu fikrlar Xojaning qalamiga mansub g‘azal haqida bo‘lib, bu she’r Zahiriddin Muhammad Boburga xat orqali muallif tomonidan yuborilganligi ma’lum.